



## EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA DAVLAT XARIDLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Alijonov B

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eksport hajmini oshirishda davlat xaridlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Davlat xaridlari orqali ichki talabni rag'batlantirish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorga chiqishiga imkon yaratish kabi omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonning davlat xaridlari sohasidagi yutuqlari va xalqaro tajribalar asosida eksportni rivojlantirishning samarali yo'llari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Davlat xaridlari, eksport, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro bozor, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, raqobatbardoshlik, innovatsiya.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГОСЗАКУПОК В УВЕЛИЧЕНИИ ОБЪЕМОВ ЭКСПОРТА

Алиджанов. Б

Ташкентский государственный экономический университет аспирант

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение государственных закупок в увеличении объема экспорта. Были рассмотрены такие факторы, как стимулирование внутреннего спроса посредством государственных закупок, развитие инфраструктуры и предоставление возможности местным производителям выйти на международный рынок. Также были изучены достижения Узбекистана в сфере государственных закупок и эффективные пути развития экспорта на основе международного опыта.

**Ключевые слова:** Государственные закупки, экспорт, экономическое развитие, международный рынок, местные производители, конкурентоспособность, инновации.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF GOVERNMENT PROCUREMENT IN INCREASING EXPORT VOLUME

Alijonov B

master's student at Tashkent State University of Economics.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of public procurement in increasing export volumes. It examines factors such as stimulating domestic demand through public procurement, developing infrastructure, and enabling local producers to enter international markets. It also examines Uzbekistan's achievements in the field of public procurement and effective ways to develop exports based on international experience.

**Keywords:** Public procurement, export, economic development, international market, local producers, competitiveness, innovation.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan eksport hajmining o'sishiga bog'liq. Eksport hajmini oshirish esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga bog'liq.

Ushbu jarayonda davlatning bevosita ishtiroki muhim bo'lib, davlat xaridlari eksportni rag'batlantirish vositasi sifatida ko'zga tashlanadi. Davlat xaridlarining iqtisodiyotga ta'siri keng qamrovli bo'lib, ichki talabni rag'batlantirishda u hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Misol uchun, davlat import o'rmini bosuvchi mahalliy mahsulotlarni xarid qilganida, bu ichki ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror talabni yaratadi. Bunday strategiya nafaqat iqtisodiyotni rivojlantiradi, balki ishlab chiqaruvchilarning eksportga moslashuvchanligini oshiradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning davlat xaridlariga ajratiladigan umumiylar xarajatlari 2023-yilda yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning taxminan 15 foizini tashkil qilgan<sup>14</sup>. Ushbu xaridlarning sezilarli qismi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bu ishlab chiqarish sohasidagi o'sishga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Eksport hajmining o'sishi ko'p jihatdan infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Davlat xaridlari yordamida yo'llar, transport-logistika markazlari, portlar va elektr tarmoqlari kabi infratuzilma obyektlari barpo etiladi.

Masalan, 2023-yilda O'zbekiston hukumati 1,2 milliard AQSh dollariga teng infratuzilma loyihibarini amalga oshirdi.<sup>15</sup>

Bu loyihibar eksport mahsulotlarini xalqaro bozorlarga samarali va arzon narxlarda yetkazib berishga imkon yaratdi. Shuningdek, davlat xaridlari yordamida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport jarayoniga oid xarajatlari kamayadi.

Logistika va tashish xarajatlari qisqarishi xalqaro bozorda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Qolaversa Davlat xaridlari orqali innovatsiyalarni joriy etishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda davlat xaridlari orqali innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi katta ahamiyatga ega. Davlatning katta miqdordagi buyurtmalari ishlab chiqaruvchilarni yangi texnologiyalarni joriy qilishga undaydi. Masalan, O'zbekiston davlat xaridlari tizimida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatiga qo'yilgan talablar xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Bu esa eksport qilinadigan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshiradi.

Ko'plab mamlakatlar davlat xaridlарини eksport siyosatining asosiy qismi sifatida muvaffaqiyatlari qo'llagan.

Masalan: Janubiy Koreya: Bu mamlakatda davlat xaridlari orqali kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. 1970-yillarda davlatning iqtisodiy rivojlanish dasturi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ajratilgan buyurtmalar eksport hajmini ikki baravarga oshirdi.

<sup>14</sup> [https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/22/trade/?utm\\_source](https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/22/trade/?utm_source)

<sup>15</sup> [https://parliament.gov.uz/articles/1594?utm\\_source](https://parliament.gov.uz/articles/1594?utm_source)

Xitoy: Xitoy davlat xaridlari yordamida yirik sanoat korxonalarini rag'batlantirib, ularning mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardosh qilishga muvaffaq bo'ldi.

Davlat xaridlarining eksport sektoriga tasirini O'zbekiston misolida o'rganadigan bo'lsak, O'zbekistonda davlat xaridlari doirasida qabul qilingan bir qator qarorlar eksport hajmini oshirishga yordam bermoqda.

Masalan, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 15 foizidan ortig'i eksportga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, davlatning xorijiy investorlar bilan hamkorlikda infratuzilmalarni rivojlantirish loyihalari eksportga xizmat qilmoqda. 2023-yilda O'zbekistonning eksport hajmi 19 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 17 foizga yuqori ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich davlat xaridlari orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yaratilgan qulay sharoitlarning samarasi sifatida baholanadi.

Xulosa o'rnila shuni takidlash mumkinki, eksport hajmini oshirish davlatning iqtisodiy strategiyasida muhim o'rinni tutadi va bunda davlat xaridlari samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish davlat xaridlarining asosiy afzalliklaridandir. Shu sababli, davlat xaridlарini samarali tashkil etish va uni eksport strategiyasiga moslashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Eksport va tashqi savdo hisobotlari, 2023-yil. stat.uz.
3. "2023-yilda O'zbekiston eksporti 19 milliard dollardan oshdi".
4. "Tashqi savdo aylanmasi: Oltin va gaz eksporti ortmoqda".
5. "Infratuzilmaga qo'shimcha mablag'lar ajratildi". daryo.uz.
6. "Hududiy loyihalar uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar". parliament.gov.uz.
7. Har bir oila – tadbirkor dasturi bo'yicha nizom. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. lex.uz.
8. Janubiy Koreya va Xitoyning eksport siyosatiga oid xalqaro tajriba. Jahon banki hisobotlari. worldbank.org.